



UDK: 372.8

**Guljahon TILLABAYEVA,**  
*Farg'ona davlat texnika universiteti tayanch doktoranti*  
E-mail: [sobirjonovaguljahon1998@gmail.com](mailto:sobirjonovaguljahon1998@gmail.com)

*P.f.d M.Boltayeva taqrizi asosida*

#### **TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM OLISH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TAYM MENEJMENT TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI**

Annotatsiya

Ushbu maqolada talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetentligini rivojlantirishda taym menejment texnologiyasidan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari ilmiy tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalar faoliyatining o'z-o'zini boshqarish, rejalashtirish va natijaga yo'naltirilganlik darajasini oshirish bugungi kunda oliy ta'lim tizimining muhim talabi sifatida e'tirof etiladi. Shu bois, maqolada taym menejment texnologiyasini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish orqali mustaqil ta'lim kompetentligini rivojlantirishning samarali yo'llari tahlil qilingan. Shuningdek, o'quv jarayonini samarali tashkil etish, talabalarda vaqt resurslaridan oqilona foydalanish, o'z-o'zini boshqarish va refleksiv tahlil ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi shart-sharoitlar tizimi ishlab chiqilgan. Ushbu tizim motivatsion, metodik, texnologik, ijtimoiy-psixologik va tashkiliy jihatlar asosida o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** Mustaqil ta'lim, taym menejment, texnologiya, shart-sharoit, vaqt resurslari, o'z-o'zini boshqarish, refleksiya.

#### **PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR USING TIME MANAGEMENT TECHNOLOGY IN DEVELOPING STUDENTS' INDEPENDENT LEARNING COMPETENCE**

Annotation

This article provides a scientific analysis of the pedagogical conditions for using time management technology in developing students' independent learning competence. In the modern educational process, enhancing students' abilities for self-management, planning, and goal-oriented activity is recognized as a key requirement of higher education. Therefore, the article examines effective ways to integrate time management technology into the learning process to develop independent learning competence. Furthermore, a system of conditions aimed at organizing the educational process effectively, fostering students' rational use of time resources, self-regulation, and reflective analysis skills has been developed. This system is analyzed based on motivational, methodological, technological, socio-psychological, and organizational aspects.

**Key words:** Independent learning, time management, technology, conditions, time resources, self-management, reflection.

#### **ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИИ ТАЙМ-МЕНЕДЖМЕНТА В РАЗВИТИИ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ К САМОСТОЯТЕЛЬНОМУ ОБУЧЕНИЮ**

Аннотация

В данной статье научно проанализированы педагогические условия использования технологии тайм-менеджмента в развитии компетентности студентов к самостоятельному обучению. В современном образовательном процессе повышение уровня самоорганизации, планирования и целенаправленности деятельности студентов рассматривается как важнейшее требование системы высшего образования. В связи с этим в статье рассматриваются эффективные пути интеграции технологии тайм-менеджмента в учебный процесс для развития компетентности к самостоятельному обучению. Кроме того, разработана система условий, направленных на эффективную организацию учебного процесса, рациональное использование временных ресурсов студентами, развитие навыков самоуправления и рефлексивного анализа. Данная система изучается на основе мотивационных, методических, технологических, социально-психологических и организационных аспектов.

**Ключевые слова:** Самостоятельное обучение, тайм-менеджмент, технология, условия, временные ресурсы, самоуправление, рефлексия.

**Kirish.** Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida oliy ta'lim muassasalari tizimining asosiy yo'nalishlaridan biri – talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetentligini rivojlantirishdir. Raqamli texnologiyalar va axborot oqimining keskin ortishi sababli o'quv jarayonida nafaqat bilimlarni egallash, balki ularni mustaqil o'rganish, tahlil qilish, tatbiq etish va refleksiya qilish ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb vazifaga aylandi. Shu sababli, taym menejment texnologiyasi – ya'ni vaqt resurslarini rejalashtirish va boshqarish tizimi – ta'lim jarayonida talaba shaxsining o'z-o'zini boshqarish kompetentligini rivojlantiruvchi muhim mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonida ham talabalarda mustaqil fikrlash va o'zini o'zi rivojlantirish kompetentligini shakllantirish oliy ta'limni modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.[1] Bu esa pedagogik jarayonda talabalarning vaqtini samarali boshqarish, maqsadni rejalashtirish va natijaga yo'naltirilganlik ko'nikmalarini shakllantirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Tadqiqotlar natijasida, ko'plab oliy ta'lim muassasalarida talabalar mustaqil ta'lim topshiriqlarini o'z vaqtida bajarish, vaqtini oqilona taqsimlash hamda o'z-o'zini nazorat qilishda qiyinchiliklarga duch kelishlari aniqlandi. Bu esa o'quv

faoliyatini rejalashtirishda tizimlilik, aniq metodika va raqamli yondashuvlar yetishmasligidan dalolat beradi. Shu sababli taym-menejment texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish, ular asosida pedagogik shart-sharoitlar tizimini yaratish zarurati tug'ilmoqda. Mazkur maqolaning maqsadi — talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetentligini rivojlantirishda taym-menejment texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash, ularni tizimlashtirish va ilmiy asoslashdan iboratdir.

**Adabiyotlar tahlili.** Talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetentligini rivojlantirish, taym menejment texnologiyasi bo'yicha xorijiy davlatlar olimlari hamda yurtimizdagi olimlar tomonidan bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda

N.A.Muslimov o'z tadqiqotlarida mustaqil ta'limning auditoriyadagi (hamkorlikdagi mustaqil ta'lim) va auditoriyadan tashqari (individual mustaqil ta'lim) tashkil etuvchilari haqida fikr yuritgan. Mustaqil ta'lim olishning muvaffaqiyatli rivojlanishi ko'p jihatdan o'z-o'zini boshqarish qobiliyatining rivojlanishi bilan bog'liq hisoblanadi. Mustaqil ta'lim jarayoni- talabalarning mustaqil faoliyatini auditoriyada, auditoriyadan tashqari va mustaqil ravishda tashkil etishga yo'naltirilgan jarayondir. Mustaqil fikr yuritish, aqliy va ijodiy faollikka erishishga qaratilgan mashg'ulot turi mustaqil ta'lim bilan bog'liqdir. Mustaqil ta'lim olish jarayonida tanlangan

Talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetentligini rivojlantirish jarayonida quyidagi ijtimoiy-pedagogik muammolarni bartaraf etish maqsadga muvofiq hisoblanadi(1.1-rasm).



1.1-rasm. Talabalarda mustaqil ta'lim olish kompetentligini rivojlantirishda ijtimoiy-pedagogik muammolar

Bugungi kunga kelib fan soatlari va ilmiy bazaviy ma'lumotlarning ko'payib borayotgani sari mustaqil ta'limga bo'lgan e'tibor tobora kuchaymoqda. Talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetentligini rivojlantirishda taym menejment texnologiyasidan foydalanish muhim ijtimoiy-pedagogik muammodir. Chunki mustaqil ta'lim orqali talabalarning intellektual salohiyati shakllanadi va rivojlanadi. Ta'lim sifatini yaxshilash va ularni kasbga to'g'ri shakllantirishda mustaqil ta'lim hamda o'z-o'zini boshqarishning o'rni katta hisoblanadi. Xalqaro ta'lim sistemasiga asoslanadigan bo'lsak ham o'quv jarayonlarining ko'p qismini mustaqil ta'lim tashkil etadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mustaqil ta'lim olish kompetentligi rivojlangan talabalarda ijodkorlik yuqori darajada shakllangan bo'ladi. Oliy ta'limning o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsad va vazifalaridan biri bu- har bir talabani biror bir sohaning yetuk mutaxassisi bo'lib shakllanishi uchun ularni o'z-o'zini rivojlantirishga, mustaqil ravishda bilimini ko'paytirishga, innovatsion faoliyatga ega bo'lgan ijodiy shaxsiyatni shakllantirishga yo'naltirishdan iborat. Ta'lim tizimida yuz berayotgan o'zgarishlar va yaratilayotgan shart-sharoitlarni hisobga olgan holda yangilanishlar har bir talaba uchun individual yondashib ishlashni talab qiladi. Taym menejment texnologiyasidan foydalanish talabalarga vazifalarni rejalashtirish, ustuvorliklarni belgilash, vazifalar bajarilishini nazorat qilish, onlayn ilovalar va boshqa vositalardan foydalanish orqali o'z vaqtlarini samaraliroq boshqarishga va yaxshi o'quv natijalariga erishishga yordam beradi. Biroq, bu texnologiya o'qituvchilar va ta'lim muassasalari ma'muriyatining kompleks yondashuvini va birgalikdagi say-harakatlarini talab qiladi. Vaqtni boshqarish bo'yicha o'quv dasturlarini tuzish va o'quv rejasiga kiritish,

mavzularning ilmiyligi, tizimliliigi hamda o'quv materiallarining qiziqarliligi, amaliyot bilan bog'liqligi, fanlararo aloqadorligi, shuningdek, beriladigan mustaqil ishlar va topshiriqlarning ijodiy xarakterga egaligi muhimdir. [2]

B.R.Muqimov "Mustaqil ish jarayonida talabalarning didaktik kompetensiyasini interfaol ta'lim metodlari asosida takomillashtirishning pedagogik va didaktik shart sharoitlari" nomli maqolasida mustaqil ish uchun mualliflik ta'rifini beradi. Ya'ni mustaqil ish - bu oliy ta'lim muassasalarida fanlardan shunday bilim olish turi bo'lib, bunda talabalarning o'z oldilariga interfaol ta'lim metodlari asosida u yoki bu vazifalarni, maqsadlarni ongli ravishda qo'yishi, o'z faoliyatini rejalashtirish va uni amalga oshirishi hamda o'zini baholay olish qobiliyatlari bilan aniqlanishidir [3].

Mustaqil ish jarayoni – talabalarning o'quv-tarbiya jarayonida mustaqil faoliyatini auditoriyada, auditoriyadan tashqari va mustaqil ravishda tashkil etishga yo'naltirilgan jarayondir. Mustaqil fikr yuritishga, aqliy va ijodiy faollikka erishishga qaratilgan mashg'ulot turi mustaqil ta'lim bilan bog'liq bo'ladi. Mustaqil ta'limning asosiy masalasi ham aynan talabaning dars va darsdan so'ngi faoliyati faolligini ta'min etishga yo'naltirilgan shart-sharoit, erkin fikr va kasbiy mas'uliyatni his qilishni ta'min etishga qaratilgan ijodiy jarayondan iborat.

Talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetentligini rivojlantirish jarayonida quyidagi ijtimoiy-pedagogik muammolarni bartaraf etish maqsadga muvofiq hisoblanadi(1.1-rasm).

O'z-o'zini boshqarish va motivatsiyaning yetishmasligi.  
Talabalarda ta'lim jarayonini rejalashtirish, nazorat qilish va tahlil qilish darajasi past.

Axborot madaniyati va tanqidiy fikrlash pastligi.  
Axborotni tahlil qilish, saralash, undan to'g'ri foydalanish ko'nikmalari rivojlanmagan.

Ta'lim jarayonining amaliyot bilan uzilishlari.  
Talabalar olgan nazariy bilimlarini hayotiy, amaliy masalalarga qo'llay olmaydi.

1.1-rasm. Talabalarda mustaqil ta'lim olish kompetentligini rivojlantirishda ijtimoiy-pedagogik muammolar talabalarning vaqtni boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish va takomillashtirishda yordam beradi.

Vaqtni boshqarish (taym menejment) — bu o'z faoliyatini, jamoaning yoki tashkilotning faoliyatini vaqt ichida ratsional ravishda tashkil etishga imkon beruvchi texnologiya. Ushbu texnologiya eng samarali usullar va texnikalardan foydalanib maqsadlarga minimal vaqt, energiya va boshqa resurslar sarflab erishishni ta'minlaydi va maksimal natijaga erishadi. Talabaning vaqtni boshqarishi — bu talabaning o'z ta'lim faoliyatini ta'lim maqsadlari, vazifalari va mavjud vaqt resurslarini hisobga olib tashkil etishidir. Shuningdek, bu faoliyatni vaqtni boshqarish texnologiyasi orqali boshqarishni o'z ichiga oladi. [4]

Taym menejment texnologiyasi pedagogik texnologiya hisoblanadi, chunki, birinchidan, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro aloqani o'z ichiga oladi; ikkinchidan, taym menejment texnologiyasi pedagogik jarayonning komponentlariga (maqsad, vazifalar, mazmun, usullar, vositalar, shakllar va o'zaro aloqaning natijalari) mos keladi; uchinchidan, ushbu texnologiya vaqt, o'z-o'zini tashkil etish fenomeni va ta'lim jarayoniga nisbatan qadriyat munosabatini shakllantiradi; to'rtinchidan, taym menejment texnologiyasi talabaning shaxsiy o'sishiga yordam beradi, o'z-o'zini tashkil etishning aniq ko'nikmalarini rivojlantiradi. Pedagogik o'zaro aloqalar doirasida taym menejment texnologiyasi ta'lim sifatini oshirishning aksiyologik resursidir.

"Taym-menejment" texnologiyasi algoritmiklik, aniq va ravshan tuzilma (maqsad qo'yish => ustuvorliklarni belgilash => rejalashtirish => amalga oshirish va tashkil etish => nazorat va tahlil) bilan ajralib turadi. Ushbu algoritmning buzilishi kutilgan natijani bermaydi. [7]

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mustaqil ta'lim kompetentligini rivojlantirish bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida o'qitish sifatining asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Bu kompetentlikning tarkibiga kognitiv, motivatsion, faoliyatli va refleksiv komponentlar kiradi. Ushbu komponentlarning barchasini samarali rivojlantirish uchun talabning o'z vaqtini boshqarish ko'nikmasi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Taym-menejment texnologiyasining talabalarga ta'sir mexanizmi quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi: [6]

o'quv faoliyatini shaxsiylashtirish – har bir talabning individual o'quv yo'lini aniqlash va uni rejalashtirish imkoniyatini yaratadi;

o'zini boshqarish madaniyatini shakllantirish – talabning ichki intizomini mustahkamlaydi;

refleksiv fikrlashni rivojlantirish – talabning o'z faoliyatini tahlil qilish va natijalarni baholashga o'rgatadi;

raqamli vositalardan foydalanish malakasini oshirish – vaqtini boshqarish uchun interaktiv ilovalar va platformalardan foydalanish kompetentligini shakllantiradi.

Shuningdek, taym menejment texnologiyasi talabalarining motivatsion o'sishiga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi. O'quv faoliyatida vaqtini to'g'ri rejalashtirgan talaba o'z muvaffaqiyatini ko'ra oladi, bu esa ichki motivatsiya va o'ziga ishonchni mustahkamlaydi.

Pedagogik nuqtai nazardan, taym menejment – bu ta'lim jarayonida talabalarni maqsadga yo'naltirilgan, rejalashtirilgan, tizimli va javobgarlik asosida faoliyat yuritishga o'rgatuvchi texnologiyadir. Talabalarining mustaqil ta'lim olish kompetentligini rivojlantirishda taym menejment texnologiyalaridan foydalanish uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlar tizimi ishlab chiqildi:

Motivatsion shart-sharoitlar – talabalarda vaqtini qadrlash, maqsad sari intilish va o'z faoliyati uchun mas'uliyatni his qilishni rag'batlantirish.

Metodik shart-sharoitlar – taym-menejment asosidagi o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish, haftalik va semestrlik o'quv rejalari tuzish, "SMART" maqsadlardan foydalanish.

Texnologik shart-sharoitlar – raqamli vositalar (Google Calendar, Notion, Trello, Forest, Pomodoro) yordamida mustaqil ta'limni boshqarish.

Ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlar – guruhiy hamkorlikni rivojlantirish, o'zaro mas'uliyatni shakllantirish va ijobiy o'quv muhitini yaratish.

Tashkiliy shart-sharoitlar – tyutorlik, kouching va mentorlik faoliyatini yo'lga qo'yish orqali talabalarni vaqtini rejalashtirishga yo'naltirish

Natijalar va ularning tahlili

Taym menejment texnologiyasining vazifasi bu- asosiy vazifani o'z vaqtida aniqlashdir. Har bir vazifaga muhimlik darajasini belgilash orqali vazifalar ro'yxatini samarali boshqarish imkonini beradi. Vaqtini boshqarishning asosiy siri - diqqat va maqsad.

Ustuvorliklar ta'lim jarayoni ishtirokchilari - ham o'qituvchilar, ham talabalar uchun ham muhimdir.

#### ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. Muslimov N.A. Kasb-hunar ta'limi pedagogikasi. – Toshkent: Fan, 2015.
3. Muqimov A.Q. Pedagogik texnologiyalar va o'qitish metodlari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019.
4. Nizamova Ch. Bo'lajak o'qituvchilarda mustaqil ta'lim kompetentligini shakllantirish metodikasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022.
5. To'raqulova D., & Xolbekova M. Pedagogik texnologiyalar va innovatsion ta'lim metodlari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.
6. McKendry, S. (2020). Time Management and Student Success in Higher Education. Glasgow: University of Strathclyde Press.

O'qituvchilar o'zlarining to'plagan tajribasidan foydalanib, mavjud bilimlarni talabalarga o'rgatishlari mumkin. Talabalar uchun vaqtini boshqarishni o'rganish o'z-o'zini tashkil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish va vazifalarni bajarilish vaqtini to'g'ri boshqarish uchun muhimdir.

Farg'ona davlat universiteti, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti va Buxoro davlat pedagogika instituti talabalarining ikkinchi va uchinchi kurs pedagogika yo'nalishlarida tahsil oluvchi talabalarda o'tkazilgan tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan pedagogik shart-sharoitlar tizimi amaliyotga tatbiq etilgach, talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatida quyidagi ijobiy natijalar kuzatildi:

Motivatsion o'sish – talabalar o'z vaqtini qadrlash, maqsad sari intilish va o'quv faoliyatidagi mas'uliyat hissini chuqurroq anglay boshladi. Ular mustaqil ta'limni tashqi majburiyat emas, balki shaxsiy rivojlanish jarayoni sifatida qabul qilishni o'rgandilar.

O'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarining shakllanishi – taym-menejment vositalari orqali talabalar o'quv topshiriqlarini rejalashtirish, ustuvor vazifalarni ajratish, o'z vaqtini tahlil qilish va natijalarni baholashni mustaqil amalga oshira boshladilar.

Mustaqil ta'lim kompetentligining rivojlanishi – o'z o'qish faoliyatini ongli ravishda boshqarish, kerakli bilim manbalarini mustaqil topish, o'rganilgan ma'lumotlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalari shakllandi.

Raqamli savodxonlik va texnologik moslashuvchanlikning oshishi – talabalarda o'quv faoliyatini tashkil etishda Google Calendar, Trello, Notion kabi raqamli platformalardan foydalanish madaniyati paydo bo'ldi. Bu esa ularning zamonaviy ta'lim muhiti bilan uyg'unlashuvini ta'minladi.

**Xulosa.** Taym menejment texnologiyasi pedagogik jarayonni tashkil etishda zamonaviy yondashuv sifatida talabalarda vaqtini rejalashtirish, maqsadni aniq belgilash, ustuvorlikni ajratish va o'z faoliyatini natijaga yo'naltirish madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu texnologiyani ta'lim amaliyotiga joriy etish talabalarining o'z ta'lim faoliyatini mustaqil boshqarish darajasini oshiradi, ularni mas'uliyatli, intizomli va o'zini nazorat qila oladigan shaxs sifatida shakllantiradi.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan pedagogik shart-sharoitlar tizimi (motivatsion, metodik, texnologik, ijtimoiy-psixologik, tashkiliy) amalda qo'llanilganda quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

talabalarda vaqt resurslarini to'g'ri taqsimlash, rejalashtirish va ustuvorliklarni belgilash ko'nikmalari rivojlandi;

mustaqil ta'limga nisbatan ichki motivatsiya va ijobiy munosabat shakllandi;

o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro hamkorlik, mas'uliyat va refleksiv fikrlash kuchaydi;

raqamli platformalar (Google Calendar, Trello, Notion, Pomodoro va boshqalar) asosida o'qish jarayonini boshqarish samaradorligi oshdi;